MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING ZAMONAVIY TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDAGI ROLI VA O‘RNI

Tursunov Faridun Mustafoyevich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Bank ishi” kafedrasi assistenti
tursunovfaridun4330@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada masofaviy bank xizmatlari tushunchasi, uning zamonaviy tijorat banklari faoliyatidagi roli va o’rni, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari, afzalliklari va kamchiliklari, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishda uchraydigan ba’ze muammolar o’rganib chiqilgan va bu muammolarni hal etish uchun ba’ze amaliy taklif va tavsiyalar berilgan. O‘zbekiston tijorat banklari amaliyotida masofaviy bank xizmatlari haqidagi barcha to‘plangan statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: onlayn-banking, internet-banking, mobil-banking, sms-banking, bank-mijoz, dibank, chat-botlar, blokcheyn, onlayn tahlil, ekotizim, robotlashtirish, axborot tizimi, to‘lov tizimi.

Abstract:This article examines the concept of remote banking services, its role and place in the activities of modern commercial banks, the main directions, advantages and disadvantages of the development of remote banking services, some problems encountered in the development of remote banking services, and some practical suggestions and recommendations are given to solve these problems. In the practice of commercial banks of Uzbekistan, it was analyzed on the basis of all accumulated statistics on remote banking services.

Keywords: online banking, internet banking, mobile banking, sms banking, banking-client, dibank, chat bots, blockchain, online analysis, ecosystem, robotization, information system, payment system.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida masofaviy bank tizimlarining dolzarbligi masofaviy bank xizmatlarining jadal rivojlanishi bilan bog‘liq. Masofaviy bank

tizimlarini o‘rganishning asosiy mezoni elektron bank xizmatlarini yanada rivojlantirish muammolari va istiqbollarini o‘rganish hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda iqtisodiyotning evolyutsiyasini mamlakat pul aylanmasining tezlashtiruvchisi bo‘lgan innovatsion bank texnologiyalaridan samarali foydalanmasdan amalga oshirish mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev o‘z nutqida bu borada “...bank tizimini rivojlantirish uchun bu yil keskin choralar ko‘rishimiz lozim. 2020 yildan boshlab har bir bankda keng ko‘lamli transformatsiya dasturi amalga oshiriladi. Bu borada banklarimizning kapital, resurs bazasi va daromadlarini oshirish alohida e’tiborimiz markazida bo‘ladi” deya, aytib o‘tgan edilar [1].

Murojaatnomadan keyin 2020 yildan boshlab har bir bankda keng ko‘lamli transformatsiya dasturi va har xil innovatsiyalarni joriy etish amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari so‘ngi yillarda bank tizimini ommaboplashtirish va erkin raqobat sharoitiga moslashtirish ko‘zda tutilgan bir qator hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2018 yil 23 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 3620-sonli Qarori qabul qilinishi bank xizmatlarini ko‘rsatishda mavjud muammolar va banklar tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan chora-tadbirlarni belgilab berdi [2].

Yangi texnologiyalarning joriy etilishi, aloqa vositalarining rivojlanishi bankning turli hududdagi mijozlarga xizmat ko‘rsatishi, shuningdek, qog‘ozbozlikni qisqartirish imkonini beradi. Bank tizimining rivojlanishi bir qancha sabablarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida birinchi navbatda yangi axborot texnologiyalari joriy etilishi bilan iste’molchi turmush tarzining o‘zgarishi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mavzuga oid birqancha olimlarning tadqiqot ishlari va ilmiiy nazariyalari bilan yaqindan tanishib chiqildi. Xususan, Rus iqtisodchisi Lavrushin O.I.

fikriga ko’ra “Uy sharoitida bank operatsiyalarini amalga oshirish elektron texnologiyalardan foydalanishga asoslangan aholiga bank xizmatlari ko‘rsatishning mustaqil shakli hisoblanadi. Har bir operatsiyani boshlashdan oldin, hisob egasi tizimga noqonuniy ulanishdan himoya kodidagi kalitni oladi. Ushbu tizimdan foydalanish joriy hisob, depozit, mijozning byudjet bilan hisob-kitoblarini, to'lov va jamg'arma hisobvaraqlarini boshqarish imkonini beradi” [3]. Jarkovskaya E.P. fikricha “Bank xizmatlarini mijoz va bank xodimi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada bo‘lgan bank ofisida emas, balki uyda, mijozning ofisida, ya’ni ikkinchisi uchun qulay bo‘lgan joyda ko‘rsatish kerak” [4]. Mijozlarga bankka kelmasdan, turli telekommunikatsiya kanallaridan foydalangan holda bank operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini yaratish[5].

Yuqordagi fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda masofaviy bank xizmati – bu bank xizmatlarini masofadan turib, bank ofisiga bormasdan, mijoz va bank xodimlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilmasdan, telekommunikatsiya kanallaridan foydalangan holda, ko‘pincha mobil telefon yoki noutbukdan foydalangan holda ko‘rsatish deb ta’rif berish mumkin.

NATIJALAR

Bank biznesidagi raqobat masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishga alohida ta’sir ko‘rsatadi. Kredit tashkilotlari uchun keng moliyaviy salohiyatga ega bo‘lishi muhim, chunki texnologik bazani tubdan yangilash uchun katta sarmoyalar talab etiladi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, malakali mutaxassislarni jalb etish, zamonaviy bank xizmatlariga kadrlar tayyorlash uchun muayyan vaqt kerak bo‘ladi. Shuningdek, onlayn tranzaktsiyalar xavfsizligiga katta e’tibor berilishi kerak. Masofaviy bank xizmatlarining o‘sishi bilan kiber jinoyatlar soni ham ortib bormoqda.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish

strategiyasi”[12] ishlab chiqildi. Strategiyani amalga oshirish bo‘yicha birqator maqsadli ko‘rsatkichlar rejalashtirildi. Strategiyaning asosiy maqsadi mamlakatimizda samarali bank tizimi va uni faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda masofaviy bank xizmatlarining roli katta[3].

Masofaviy bank xizmatlari rivojlanishi tufayli fuqarolarning turmush tarzining tubdan o‘zgarib borayotgan jadal transformatsiyalar davrida jismoniy aloqa orqali an’anaviy bank xizmatlaridan foydalanishga odatlangan va masofaviy bank tizimidan foydalanishdan bosh tortgan konservativ mijozlarga e’tibor qaratish zarur. Shuning uchun, banklar uchun an’anaviy mijozlar bilan aloqani saqlab qolish juda muhimdir. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ham bu masalani ko‘rib chiqmoqda va internet texnologiyalari rivojlanishi tufayli butunlay an’anaviy bank biznesi yo‘qolmasligini ta’kidladi.


Aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasi hududida tashkil etilgan “Uzcard” to‘lov tizimi jahon talablariga javob beruvchi yuqori darajada himoyalangan bo‘lib, har bir plastik karta egasi karta hisob raqamidagi pul mablag‘larini tasarruf etish huquqini tasdiqlovchi shaxsiy identifikatsiya raqamiga ega. Bunda esa begona shaxslar tomonidan soxtalashtirish va plastik karta egasi ruxsatisiz foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Undan tashqari respublikamizda “Uzcard” to‘lov tizimiga raqobatdosh bo‘la oladigan yangi tizimi “Humo” to‘lov tizimi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu tizim respublikamizda faoliyatini boshlagandan so‘ng mijoz tanlash huquqiga ega bo‘ldi. 1-rasmda masofaviy bank xizmatlarining xususiyatlarini ajratib ko‘rsatamiz.

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/4811025.



1-rasm. Masofaviy bank xizmatining xususiyatlari

Endi biz masofadan bank xizmatlarini ko’rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar sonining o’zgarish dinamikasini ko’rib chiqamiz (1-diagramma).



1-diagramma. Masofadan bank xizmatlarini ko’rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni[13] (2023-yil 1-oktabr holatiga)

Diagramma ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, 2014-2023-yillarda (oxirgi 10 yilda) respublikamiz tijorat banklarida masofadan bank xizmatlarini

[13] www.cbu.uz

ko’rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar sonining o’sish tendensiyasi kuzatilgan.

Tijorat banklarning respublika bo‘ylab keng filiallar tarmog‘i mavjudligi, bankka kelib uning xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlari sonining ko‘pligi sababli ham ularda masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni nisbatan ko‘proq. Bu esa, ushbu xizmat turlarining tobora va jadal rivojlanib borayotganini ko’rsatadi.

XULOSA. O‘zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini rivojlanish istiqbollari bo‘yicha olib borgan tahlillar natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Banklarning mobil ilovasini takomillashtirish va ko’proq xizmatlar turini mobil ilovada joylashtirish kerak. Xususan, xalqaro pul o‘tkazmalariga integarsiyalashuv orqali xorijga mablag‘larni jo‘natish va qabul qilish, plastik kartalar virtual emmisiyasi xizmatini kiritish kabilar shular jumlasidandir.

2. Banklarning interaktiv mahsulotlarini ko’paytirish kerak. Masalan, pulli reklamalar, savdo komissiyasi kabi moliyaviy hamkorliklarni ilovalarda joylashtirish kerak. Har bir bank o’zining mintaqaviy ekotizimni yaratishi kerak.

Masofaviy bank tizimlarini rivojlantirishning yana bir zamonaviy tendentsiyasi - bu o'yinlashtirish kabi texnologiyalarni joriy etishdir. Mijoz o'yin ko'rinishidagi barcha kerakli ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Banklarning masofaviy bank xizmatlari tizimida yangi chat-bot tizimlarini kiritish maqsadga muvofiq bo’ladi. Banklar uchun ushbu texnologiyaning joriy etilishi bank xarajatlarini tejashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 3620-sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Murojaat (2018). Xalq so‘zi gazetasining 23 dekabr soni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/4811025.

4. О. И. Лаврушин, И. Д. Мамонова, Н. И. Валенцева [и др.]; под ред. О. И. Лаврушина. Банковское дело: учебник – Москва: КноРус, 2016. – 800с.

5. Жарковская, Е.П. Банковское дело: для студентов вузов по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит» / Е. П. Жарковская. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Омега-Л, 2012. – 452 с.

6. Корнилова,Ю.А. Дистанционное банковское обслуживание: обзор предложений / Ю. А. Коринилова // Экономика современного предприятия. – 2011. – № 10 – С. 48–54.

7. Karimova A.M., Tursunov F.M. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. 2023-yil. 6-12 betlar.

8. Bekmurodov, A. A. "Tijorat banklari faoliyatida transformasiyalanish jarayonlarining asosiy yo’nalishlari."Форум молодых ученых 6 (82) (2023): 3-9.

9. Bekmurodov A. A. Banklarni trasformatsiya qilish sharoitida masofadan xizmat ko’rsatish tizimini ommalashtirish //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 83-86.

10. Tursunov Faridun Mustafoyevich. (2023). OPPORTUNITIES FOR REMOTE BANKING SERVICES TO GROW IN REPUBLIC OF UZBEKISTAN’S COMMERCIAL BANKS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 4–7.